

ORGAN VA TO'QIMALAR TRANSPANTATSIYASINING AXLOQIY NORMALARI

Ashurova Maftuna

Toshkent davlat stomotologiya instituti talabasi

Annontatsiya

Bu maqolamda asosan transplantasiyaning axloqiy normalari haqida va transplantatsiyaning turlari va transplantatsiya qilish jarayonidagi qanaqa muommalar yuzaga kelishi mumkinligi haqida yoritib berdim.

Kalitso'zlar: transplantatsiya, allotransplantatsiya, izogenttransplantatsiya, ksenotransplantatsiya, autotransplantatsiya, donor, retsipient, altruzim.

Transplantatsiya –bu qandaydir to'qima va organlarni ko'chirib o'tkazishdir.Masalan:yurak, jigar, o'pka, oshqozonosti bezi, ichak, timus va bachadon .Transplantatsiya ham o'z ichida turlarga bo'linadi.Allotransplantatsiya-bu bir xil turdagi genetik jihatdan bir xil bo'lmagan ikkita a'zo o'rtasida organ yoki to'qimalarning almashinuvidir.Izogenttransplantatsiya –immunologik va genetic jihatdan retsipiyentga aynan o'xshash bo'lgan uning tuxumdan egizagi transplantatsiyasidir.Ksenotransplantatsiya-bu organ va to'qimalarni bir turdan ikkinchisiga o'tkazishdir.Autotransplantatsiya-transplantat retsepiyentining o'zi shu transplantatning donori.Donor –bu transplantatsiya uchun organlar yoki to'qimalar olinadigan organizm.Retsipient – to'qimalar yoki organlar transplantatsiya qiladigan organizm.Donorning a'zo va to'qimalarini retsipientga ko'chirib o'tkazishning turli xil usullari mavjud.Turli xil usullari bo'lgani sababli o'ziga yarasha biologik va etnik-huquqiy muammolari ham mavjud.Transplantasiyaning muammolari asosan ko'chirib o'tkazish uchun olingan organlar tirik yoki murdaniki ekanligiga qarab farqlanadi.Masalan tirik donordan organni ko'chirib o'tkazish uning hayotiga jiddiy havf soladi.Donor organi yoki to'qimasini olayotgan jarroh unga bila turib zarar yetkazadi . Donor sog'ligiga zarar yetkazish va retsipient qutqarish juda mushkul jarayondir.Donor organining olinishi sog'ligiga jiddiy ziyon yetkazishi mumkinligi aniq bo'lgan odam o'z organidan ixtiyoriy ravishda ham vos kechilishiga qo'yilmaydi.O'z farzandini yaxshi ko'radigan ona yoki ota unga jufti bo'lmagan hayot uchun



muhim organini berib, o'z hayotini qurbon qilishi yaxshi emas. Donor asosan yaqin qarindoshlar yoki retsipientga umuman aloqasi bo'lmagan odamlar sanaladi. Yana bir muammolardan biri bu retsipientga donor organini o'tkazashganimizga uning genetic jihatdan o'xshamasligidir. Genotipning to'liq identifikatsiyasiga erishish mumkin bo'lmasada, donorning genotipi retsipientning genotipiga ma'lum darajada o'xshashligi kerak. Shunda havflar anchaga kamayadi. Avtotransplantatsiya operatsiyalarini bajarish, rad etish reaksiyasi xavfi kamdan-kam hollarda yuzaga keladi. Donorlikning o'zi ixtiyoriy, beg'araz va ongli ravishda bo'lishi lozim. Altruzim donor va retsipient o'rtasidagi munosabatlarda tijorat bitimi yoki oldi-sotdi shartnomasining yo'qligi ham katta ahamiyatga egadir. Ixtiyoriy ya'ni o'z organi boshqa shaxsga berishga roziligi, ongliligi esa shu jarayonni tushunib yetishishidir.

O'lik tanasidan organlarni chiqarib olish eng tarqalgan usullardan biri bo'lib xizmat qiladi. Uning ham o'z navbatida muammolari ko'p. Masalan, inson o'lganligini qayd qilish muammosi, o'lgandan so'ng a'zolaridan ixtiyoriy ravishda vos kechish muammosi va din nuqtayi nazaridan transplantatsiya qilish. Inson o'lganligi muammosini o'z ichida yana bir muammo o'lish jarayonini nima? O'lim bu odam fiziologik jarayoning to'xtashidir. Bunda asosiy mezon sifatida miya hujayralarning o'lishi nazarda tutiladi. Endi o'lgandan so'ng o'z a'zolaridan ixtiyoriy ravishda vos kechish muammosini ko'radigan bo'lsak, Rossiyada amalda bo'lgan transplantologiya to'g'risidagi qonun fuqaroning o'ziga ham, uning qarindoshlariga ham (o'limidan keyin) o'z tanasidan foydalanishni rad etish huquqini berilgan. Bundan tog'ri foydalanish kerak. O'lgan odamning tanasi uni boshqa odamlar hayoti bilan bog'lovchi ko'prikk aylanishi tabiiy holder. O'likdan a'zolari olishni ham 3 turi bor. 1) Eskirgan usulda chiqarib olish 2) Rizolik prezumtsiyasi prinsipiga munosib chiqarib olish 3) O'z o'limidan so'ng, insonning tanasidan a'zolari chiqarib olishga norizolik prezumtsiyasi prinsipiga munosib chiqarib olish. A'zolari eskirgan usulda chiqarib olishning asosiy g'oyasi bu o'lgan odamning tanasini davlat mulki deb qarab ilgari suriladi. Nomiga mos ravishda bu usul hozirda qo'llanilmaydi. Ikkinchisida esa o'lgan shaxsning tana a'zolarini olish vaqtida uning qarindosh urug'lari bunda rozilik bildirishsa, bu rizolik prinsipidir.

Norizolik prinsipida esa insonning qandaydir amallariga oldindan berilgan norizoligini bildirishdir. Agarda rozi bo'lsa, uni rasmiylashtirishi lozim hisoblanadi.



Diniy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak,transplantalogiyaga hamma dinda o'zgacha qarash bor. Rossiyaning cherkovlarida,inson a'zolarini oldi-sotdi deb qarash mumkin emas deb hisoblaydi.Tirik donordan a'zolari ko'chirib o'tkazish boshqa insonning hayotini saqlash uchungina mumkinligi qayd etilgan.Rim-katolik cherkovi esa transplantalogiyadagi donorlikni rahmdillik va axloqiy burch deb hisoblashadi.Buddaviylikda esa a'zolari faqatgina tirik organizmdan ko'chirib o'tkazishninh yagona sharti bu-bu kasal uchun inom sifatida ko'rilishi deb takidlaydi.Islom qonunlariga ko'ra,inson hayoti va uning sifati katta ahamiyatga egadir.Agarda operatsiyadan olinadigan foyda zarardan ko'proq bo'lsa,hamda yo'qotilgan a'zoni ,uning shakli va funksiyasini qayat tiklash,insonga jismoniy va axloqiy iztiroblar keltiriladigan nuqson va husndagi kamchiliklarni yo'qotish asosiy maqsad bo'lsa,inson a'zosini bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib o'tkazish mumkin.

Hozirda trnasplantalogiya sohasi bo'yicha katta ahamiyat berilmoqda.Trnasplantalogiyaning turlari bo'yicha o'z yutuqlarimizni aytadigan bo'lsak, avtotransplantatsiyada rootatsionoplastika sohasi bo'yicha distal bo'g'im ko'proq proksimalni almashtirish uchun ishlatiladi; odatda oyoq yoki oyoq Bilagi zo'r bo'g'im tizza bo'g'imini almashtirish uchun ishlatiladi. Odamning oyog'i kesiladi va teskari buriladi, tizzasi olinadi va tibia son suyagi bilan birlashtiriladi.Transplantalogiyada buyraklarni almashtirsh,jigarning ma'lum bir qismini almashitirish, kuygan terining o'rniga yangi teri o'tkazish ,ko'z sohasi bo'yicha, yurakni almashtirish yutuqlarimizga yan bir misoldir.

Xulosa, transpalantologiya sohasi murakkab jarayonlarni o'z ichiga oluvchi sohadir.Transplantalogiya sohasidan yaxshi maqsadlarda foydalanilsa,odam umriga yanada uzaytirish mumkin.Lekin bu degani odam organizmning a'zolarini sotish kerak degani emas.Biz avvalambar shifokormiz,oddiy sotuvchilar emas. Bizning asosiy maqsadimiz bemor hayotini saqlab qolish uchun kurashni so'nggi daqiqalargacham davom ettirishdir.Bemor hayotini saqlab qolish har bir shifikorning asosiy burchi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shimanovskiy Yu.K. Operatsii na poverxnosti chelovecheskogo tela.- Kiev, 1865, s.314.Problems of transplantation of human organs and tissues: international standards and international experience. RELIGACIÓN.



- REVISTA DE CIENCIAS SOCIALES Y HUMANIDADES. Nozimakhon Gafurova, Khasan Ochilov, Bobur Sobirov. Vol 4, No 16, Quito Trimestral, Junio 2019. pp. 714-719, ISSN 2477-9083
2. Press Release, Health Res. and Servs. Admin., U.S. Dep't of Health and Human Servs., HHS Will Expand Funds to Study Ways to Increase Organ and Tissue Donations (Apr. 17, 2001) (quoting Secretary of Health and Human Services Tommy G. Thompson), available at <http://newsroom.hrsa.gov/releases/2001%20Releases/organgrant.htm>.
 3. Pirogov N.I. O plasticheskix operatsiyax voobshche, o rinoplastike v osobennosti,- V kn.Sobranie sochineniy .M., 1957, t.1, s.100-101.
 4. Vsemirnaya organizatsiya zdravooxraneniya (VOZ). URL: <http://www.who.int/transplantation/ru/>.
 5. Istoriya otechestvennoy transplantologii. M.1985, s.15.
 6. Bogdanovskiy Ye.I. Opit perenosa kostey ot odnogo jivotnogo drugomu, Meditsinskiy vestnik, 1861, N 10, s.87.
 7. ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҚАМЛАШТИРИШ: Сиддиқов Нурали Нишоналиевич, ТДСИ Ижтимоий фанлар биоэтика курси билан кафедраси катта ўқитувчиси
 8. НН Сиддиқов - Научно-практическая конференция, 2022
 9. СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ МОЛОДЫХ СОБСТВЕННИКОВ В СФЕРЕ СРЕДНЕГО И МАЛОГО БИЗНЕСА
 10. НН Сиддиқов - Социосфера, 2020
 11. Нурали Нишоналиевич Сиддиқов. "СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИДА "ИЖТИМОЙ ШЕРИКЧИЛИК ТЎҒРИСИДА"ГИ ҚОНУНИНИНГ ЎРНИ" Academic research in educational sciences, vol. TSDI and TMA Conference, no. 2, 2022, pp. 91-94.
 12. Nurali Nishonalievich, S. . (2022). TODAY'S GENERATION OF ENTREPRENEURS AS A SUBJECT OF HIGH SOCIAL RESPONSIBILITY: TODAY'S GENERATION OF ENTREPRENEURS AS A SUBJECT OF HIGH SOCIAL RESPONSIBILITY. Central Asian Journal of Innovations and Research, 4. Retrieved from <http://www.sciencepublish.org/index.php/cajir/article/view/187>
 13. Нигматова А.Н., Абдусапиева Р.Р., & Сиддиқов Н.Н (2023). КАЧЕСТВО ЖИЗНИ, СВЯЗАННОЕ СО ЗДОРОВЬЕМ ПОЛОСТИ РТА, И ЕГО ВЛИЯНИЕ У ВЗРОСЛЫХ. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (5), 84-87. doi: 10.5281/zenodo.7569563.

